

## **YOSHLAR TARBIYASIGA AXBOROT XURUJLARINING TA'SIRI**



**Avazova Gulnoza G'ayratovna**

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o'qituvchisi*

[daisy.8888@inbox.ru](mailto:daisy.8888@inbox.ru)

**G'ofurjonova Xilola G'ofurjonovna**

*Axborot texnologiyalari fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi globallashuv jarayonida tobora avj olib borayotgan axborot xuruji va uning salbiy oqibatlari haqida fikrlar bildirilgan. Axborot xurujining insoniyat ongini egallahsga qaratilgan maqsadi, uning namoyon bo'lism shakllari va unga qarshi kurashishning dolzarbliji va ahamiyati bo'yicha takliflar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, tarbiya, milliy g'oya, ma'rifat, globallashuv, axborot xuruji, axborot makoni, axborot xavfsizligi, internet.

**Abstract:** The thesis expressed opinions about the information attack and its negative consequences, which are becoming more and more acute in the modern process of globalization. The article describes suggestions about the purpose of an information attack on the mastery of human consciousness, the forms of its manifestation, as well as the relevance and importance of fighting it.

**Keywords:** education, national idea, enlightenment, globalization, information attack, information space, information security.

Bugungi globallashuv jarayonida tobora avj olib borayotgan axborot xuruji va uning salbiy oqibatlari haqida fikrlar bildirilgan. Axborot xurujining insoniyat ongini egallahsga qaratilgan maqsadi, uning namoyon bo'lism shakllari va unga qarshi kurashishning dolzarbliji va ahamiyati bo'yicha takliflar bayon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida» gi qarorida

yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir etuvchi, ularni g'oyaviy jihatdan qaram etishga yo'naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o'z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish masalasini alohida e'tibor qaratib, "aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish"ni Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berdi.

Bugunda globallashuv davom etayotgan va xalqaro munosabatlarning butun tizimi o'zgarib borayotgan bir sharoitda jahondagi harbiu-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf-xatar hamda tahdidlar ko'lami kengayib borayotganligi – geosiyosiy qarama-qarshilikning kuchayishi, mojarolar va tang vaziyatlarni kuch ishlatib hal etishga bo'lgan yondashuvning ustunlik qilishi, kuch ishlatish, shu jumladan ommaviy qirg'in qurollarini qo'llash ehtimoli oshib borayotganligi, harbiylashtirish, xalqaro terrorizm va ekstremizm faollashuvi davom etayotganligi, axborot va kibermakonda o'zaro kurash kuchayotganligi bilan tavsiflanmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

XX asrning oxirlariga kelib, axborot jamiyatda tabiiy, moliyaviy, mehnat va boshqa resurslarga nisbatan ham kuchli va sezilarli mustaqil ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida namoyon bo'la boshladi.

Axborot «kim», «qachon», «nima», «qayerda», «qancha», degan so'zlar bilan boshlanuvchi savollarga javob ko'rinishida ifoda etiladi. Bilim esa o'z navbatida, «qanday» degan so'z bilan boshlanadigan savollarga javob ko'rinishida namoyon bo'ladi. Demak, axborotdan foydalanish bilim olishning o'zgargan shaklidir.

Axborotdan erkin foydalanish huquqi insonning dunyoga kelishi bilan unga beriladigan, qonun bilan taqiqilanmagan har qanday axborotni olish, saqlash, tarqatish, yangilash mumkin bo'lgan harakatlarning fundamental hamda

kompleks huquqidir. Tabiiyki, bunday holat boshqa shaxslar, davlat va jamiyatning axborot bo'yicha xavfsizligiga zarar yetkazmasligi zarur.

Bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar aholining ma'lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, yolg'on axborot, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinishdek ko'rinishlarda sodir bo'lmoqda.

G'alamis kimsalar yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirishda internetdan ustalik bilan foydalanmoqda. O'zlarini "yaqin do'st" sifatida tanitib, yoshlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itmokda. Aslida, ularning din va shariat haqida umuman ilmlari yo'q, faqatgina to'da boshidan yodlab olganlarini takrorlashdan nariga o'tishmaydi. Boshqa tomondan qaraganda, ular bu johilligi bilan boshqalarni ham jar yoqasiga tortayotgani va kimningdir nog'orasiga o'ynayotganini bilmaydi. Bundaylar avval dinu diyonat, ibodat, jannat haqida turli jozibali so'zlarni gapirib, g'o'r yoshlarni yo'ldan urib, oxir-oqibatda razolat qurbaniga aylantirmoqda. Dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar barchamizdan yoshlar tarbiyasiga yanada e'tiborli bo'lishni talab etadi. Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ongu shuurini internet orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu esa o'qituvchilar, ma'naviyat targ'ibotchilari, otonalardan yanada hushyor va ogoh bo'lishni, yosh avlodning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishni talab etadi. Albatta, taqiqlar yoki filtr vositalari orqali odamlarni internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan, keraksiz va salbiy axborotlardan saqlash qiyin va faqatgina vaqtinchalik holat bo'lishi mumkin.

Xulosa o'mida aytganda, insonlar qalbi va ongi uchun katta kurashlar kechayotgan globallashuv davrida yuksak ma'naviyat, odob axloq tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish dolzarb vazifadir, o'sib kelayotgan yosh avlodni diniy-milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida o'z xalqi, Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, ularni xar xil buzg'unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish, munosib himoya qilishdan iboratdir. Yoshlarimizning

ma'naviy olamida bo'shliq paydo bo'lmasligi uchun ularning qalbi va ongida milliy qadriyatlarimizga hurmat tuyg'ularini shakllantirishimiz, bundan davlat va jamiyat, ota-onalar ko'proq manfaat ko'rishini har bir mahallada targ'ibot-tashviqot orqali yetkazishimiz zarur.

Axborot tushunchasi bugungi kunda har doimgidan ham kengroq ma'no va mazmun kasb etib bormoqda. Bugun biz yashab turgan zamon va makonda bizga bog'liq bo'lmanan holda gohida oshkora, aksariyat hollarda pinhona tarzda harakat qiluvchi "axborot xuruji" atalmish qurol yuzaga keldiki, bu qurol vositasida endi inson ongiga egalik qilish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu salbiy illatdan xalqimizni, xususan, yosh avlodni himoya qilish, ularda "axborot xuruji"ga qarshi immunitetni shakllantirish har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarimizda axborot iste'moli madaniyati shakllangan bo'lsa Milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar va ma'lumotlarni baholash paytida turli buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolmaydi, axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirgan bo'lamiz. Tobora kuchayib borayotgan globallashuv jarayonida axborot xurujlari va kibertahdidlardan himoyalanish, o'z navbatida, ularga qarshi kurashish uchun har bir kishi hushyor va ogoh bo'lishi, axborotni tahlil qila bilishi lozimligini davrning o'zi talab etmoqda. Shunday ekan, ogohlilik kundalik shiorimizga aylanishi darkor.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlartizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №PQ-5040 sonli Qarori. 2021 yil 26 mart.
2. Karimov I.M., Turgunov N.A. Axborot xavfsizligi asoslari. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi nashriyoti, 2016 yil, 98 b.
3. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 1(02), 132-137.

4. Adbujalilova, S. A., & Koraev, S. B. (2020). Талабалар илмий дунёкарашини шакллантиришда педагогик технологияларнинг урни. Academic research in educational sciences, (4).
5. Burkhonov, A., Avlaev, O., Abdujalilova, S., & Otaev, A. (2021). Responsibility as a criterion for determining personal maturity. In E3S Web of Conferences (Vol. 244, p. 11059). EDP Sciences.
6. Avlaev, O. U., Burkhanov, A. A., Ismoilova, D. M., & Norkuzieva, M. A. (2020). Factors Affecting the Intellectual Dynamics of the Individual. Test Engineering & Management, 83, 693-702.
7. Musurmonov R., Burkhonov A., Musurmonova M. Innovative activity-a factor of educational efficiency. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, (2021) 8(3), 1238-1241.

